



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-iyul

341-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Parrandachilik sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son qarori ijrosi haqida”gi 309-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Parrandachilik sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi 309-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 15-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Parrandachilik sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son qarori ijrosi haqida”gi 309-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-238 qarori bilan:

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi bir oy muddatda:

I bosqichda “Mikrokreditbank” ATBga ajratilgan 35 million AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larni qaytarish muddatini qo‘shimcha 3 yilga uzaytirishi;

II bosqichda ajratilishi belgilangan 35 million AQSH dollar miqdoridagi mablag‘ni parrandachilik sohasidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun “Mikrokreditbank” ATBga ajratilishini ta‘minlashi; Bunda mazkur mablag‘lar doirasida ajratilgan kreditlardan qaytgan mablag‘lar to‘liq parrandachilik sohasini kreditlashga yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Soliq qo‘mitasining: 2030-yil 1-yanvarga qadar parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini (ekin maydonlaridan tashqari) to‘lashdan ozod etish;

2024-yil 1-iyuldan boshlab parranda go‘shini (TIF TN kodi 0207) eksport qilishda mavjud barcha cheklolarni bekor qilish;

2024-yil 1-oktyabrdan boshlab yangi so‘yilgan, sovutilgan yoki muzlatilgan uy parrandasi go‘shiti va qo‘shimcha ozuqabop mahsulotlari (butun go‘shiti, qanot, bel, bo‘yin, okorochoq, golen, son, qiyma va teri) O‘zbekiston hududiga olib kirishda belgilangan bojxona boji bo‘yicha berilgan imtiyozni bekor qilish takliflari ma‘qullanganligi;

Parrandachilik sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va klaster tizimini joriy etish hamda naslchilik materiallari ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi va uning vazifalari 1 va 1a-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ishchi guruh (J.Xodjayev) O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi elchixonalari bilan parrandaning go‘sht yo‘nalishi rivojlangan xorijiy, shu jumladan, AQSH genetik kompaniyalari bilan muzokaralar o‘tkazib, tegishli kelishuvlarga erishilishini ta’minlashi;

Quyidagilar: 2024-yilda parranda tuxumi va go‘shti ishlab chiqarish hajmlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida go‘sht yo‘nalishidagi yirik sanoatlashgan parrandachilik korxonalarini tashkil etish quvvatlari 3-ilovaga muvofiq;

Parrandachilik sohasini kelgusida rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari 4-ilovaga muvofiq;

Parrandachilik sohasini rivojlantirish va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 5- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

“Parrandasanoat” uyushmasi hamda ATB “Mikrokreditbank”ning:

respublikada parrandachilik sohasida, shu jumladan kooperatsiya tizimida parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “tayyor biznes” loyihalarini (kelgusi o‘rinda – “tayyor biznes” loyihalari) amalga oshirish;

“Parrandasanoat” uyushmasi ta’sischiligidagi “Parranda investment” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan respublika hududlarida “tayyor biznes” loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-iyundagi Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5146-son qaroriga muvofiq Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan “Mikrokreditbank” ATBga ajratilgan maqsadli mablag‘larning I bosqichidan qaytgan va “Mikrokreditbank” ATB tomonidan boshqa xalqaro moliya institutlaridan jalb etilgan mablag‘larni “Parranda investment” MCHJ tomonidan parrandachilik sohasida “tayyor biznes” loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi;

Bunda: parrandachilik sohasida “tayyor biznes” loyihalari bilan barcha xarajatlarni (loyiha smeta hujjatlarini tayyorlash, uni ekspertizadan o‘tkazish va boshqalar) moliyalashtirish uchun kreditlar, loyihalar muddatiga mutanosib ravishda yillik 14 foiz stavkada, kelgusida investitsiya loyihasini bosqichma-bosqich garovga olish sharti bilan sug‘urta polisi asosida ajratilishi; mazkur loyihalar doirasida, kredit qaytmasligi xatarini sug‘urtalash bilan bog‘liq xarajatlar ushbu kredit mablag‘lari hisobidan qoplanishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyatda 2024-yilda parranda tuxumi va go‘shti ishlab chiqarish hajmlari prognoz ko‘rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalari, shu jumladan, parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari foyda solig‘i va mol-mulk solig‘i to‘lashdan ozod qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman davlat soliq ispeksiysai (J.Anvarov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (T.Mirzayev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jo‘rabayev), Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakumov) tijorat banklari va tegishli tashkilotlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev